

**GLOBAL OZIQ-OVQAT INQIROZI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI
ISHLAB CHIQARISHINING BARQAROR RIVOJLANISH MUAMMOLARI:
TAHLIL VA XALQARO TAJRIBA****Abrayeva Madina Samadullo qizi- mustaqil izlanuvchi**

Annotatsiya: Maqolada jahon oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi masalalari tahlil etilgan. Muallif tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar — AQSh, Germaniya, Braziliya va Iordaniya misolida qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish hamda raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning muhim yo'nalishlari — suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash, fitomeliorativ tadbirlardan foydalanish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish va fermer xo'jaliklarini innovatsion qo'llab-quvvatlash masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda milliy qishloq xo'jaligi siyosatini takomillashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, barqaror rivojlanish, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, suv tejovchi tizimlar, yer resurslari, fitomelioratsiya, xalqaro tajriba.

So'nggi yillarda jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi global miqyosda eng dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Aholi sonining keskin o'sishi, iqlim o'zgarishi, yer va suv resurslarining kamayishi, geosiyosiy muammolar hamda energiya inqirozlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga katta bosim o'tkazmoqda. Shu sababli barcha mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'z milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda turli strategiya va mexanizmlardan foydalanmoqda. Masalan, AQSh va Germaniya qishloq xo'jaligida raqamlashtirish, resurs tejamkor texnologiyalar va biotexnologiyalardan keng foydalanish orqali ishlab chiqarish hajmini barqaror oshirib kelmoqda. Braziliya va Iordaniya esa sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalar va ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish hisobiga yuqori samaradorlikka erishmoqda.

Dunyo miqyosida oziq-ovqat narxlarining ko'tarilishi, taxminan 854 million kishini to'yib ovqatlanmaslikka olib keldi. Oziq-ovqat inqirozi kambag'al va ochlarning umumiy soniga yana 100 million qo'shishi mumkin. Eng noqulay iqtisodiy vaziyat Somali, Afg'oniston, Efiopiya, Iroq, Yeritreya, Sudan, Gaiti, Burundi, DRC,

Liberiya, Angola, Mo‘g‘uliston, Shimoliy Koreya, Uganda, Tojikiston va Gruziyada bo‘lgan.

Ma‘lumki, global oziq-ovqat inqirozi keskinlashish tendensiyasiga ega va unga quyidagi omillar ta‘sir qiladi: dunyo aholisi 1950 yildan beri eng past sur‘atda o‘smoqda. 2020 yilda 1 foizga kamaygan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining so‘nggi prognozlariga ko‘ra, dunyo aholisi 2030 yilda 8,5 milliardga, 2050 yilda esa 9,7 milliardga ko‘payishi mumkin. 2080 yillarda taxminan 10,4 milliard va 2100 yilgacha bu darajada qolish prognoz qilinmoqda¹, bu yerda o‘shishning 90% rivojlanmagan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarining o‘shish sur‘atlari ba‘zan aholi tomonidan ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabning o‘shish sur‘atlaridan orqada qolmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, umuman olganda ham doimiy ravishda o‘shib boradi.

So‘nggi o‘n yil ichida qishloq xo‘jaligi barqaror ko‘rinishga ega bo‘lib, buni jahon qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atlari bilan izohlaymiz (1-jadval). Dunyodagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari turlari narxlarini indekslarining dinamikasi, ayniqsa don ko‘rsatkichi, davlat va jahon don zaxiralarini shakllantirish g‘oyasi haqiqat ekanligidan dalolat beradi.

1-jadval

**Dunyodagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘atlari²,
(1981-2023 yy. %)**

Indeks	1981-1990 yy.	1991-2000 yy.	2000-2020 yy.	2020-2023 yy.
Yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari				
Jami ishlab chiqarish, %	2.3	2.5	2.7	0.2
Aholi jon boshiga ishlab chiqarish, %	0.6	1	1.5	0.2
Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish				
Jami ishlab chiqarish, %	2.3	2.3	2.7	0.3
Aholi jon boshiga ishlab chiqarish, %	0.3	1.1	1.6	0.2
Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish				
Jami ishlab chiqarish, %	2.4	2.2	2.3	0.1
Aholi jon boshiga ishlab chiqarish, %	0.7	0.7	1.1	0.2

¹Manba: <https://uza.uz/uz/posts/dunyo-aholisi-soni>

² Manba: <https://data.worldbank.org/indicator/NV.AGR.TOTL.KD.ZG> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

Donning yuqori narxlari tendensiyasining saqlanib qolishi va g'alla ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlariga narxlarning ko'tarilishi sharoitida to'g'ridan-to'g'ri pul ta'minoti ushbu mahsulotlarning iqtisodiy mavjudligini ta'minlashning yanada samarali mexanizmi, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ridan-to'g'ri yordam berish tizimini tashkil etadi.

Donga bo'lgan ichki ehtiyojni qondirish uchun muvozanat barqarorligi mezonlarini qonunchilik darajasida belgilash zarur, uning buzilishi don bozorida eksportga cheklovlar kiritilishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi sohasi va dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish, xususan, ayrim mamlakatlarda mamlakatning yalpi ichki mahsulotida sezilarli ulushga ega. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasiga kelsak, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2022 yilda 26,9 foiz, 2023 yilda esa 25,1 foiz bo'lishiga erishilgan³.

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, bir qator mamlakatlar ko'rsatkichlarini taqqoslash asosida, qishloq xo'jaligining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishi qashshoqlikni kamaytirishda boshqa tarmoqlardan olingan YAIM o'sishidan kamida ikki baravar samarali.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining Belorussiya YAIMdagi ulushi 2020 yilda 9,2 foizni tashkil etdi. Fransiya va Germaniyada qishloq xo'jaligi YAIMning atigi 1-2 foizini tashkil qiladi. Arab Sharqi mamlakatlarida 2017 yilda vaziyat quyidagicha bo'lgan: Iordaniya-3%, Marokash-15%, Iroq-2%, Suriya-4%, Livan-2%.

Dunyo aholisining ko'payishi va ekinlarni yetishtirishga yaroqli maydonlarning kamayishi sharoitida har bir mamlakat uchun qishloq xo'jaligining raqobatdosh ustunliklaridan biri sifatida yer resurslaridan imkon qadar to'liq va samarali foydalanish juda muhimdir.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni 2-jadvalda keltirilgan. Nomlari keltirilgan arab mamlakatlari geografik jihatdan Iordaniyaga qo'shni - bu Yaqin Sharqdagi arab davlati, u shimolda Suriya, shimoliy-sharqda Iroq, sharq va janubda Saudiya Arabistoni bilan chegaradosh, Iordaniya Misrdan O'lik dengiz qirg'oqlari bilan ajralib turadi va Aqaba ko'rfazining qirg'oqlari bilan taqsimlanadi.

2000 - 2020 yillarda Iordaniyada qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni deyarli o'zgarmadi. Dunyoning ushbu mamlakatlaridagi qishloq xo'jaligi yerlarining tuzilishini taqqoslab tahlil qilamiz.

2-jadval tahliliga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi eng katta qishloq xo'jaligi yer maydoniga ega (216,200 ming gektar, haydaladigan yer maydoni esa 129,480 ming

³ Manba: O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Uzstat, 2023 y.

gektar). Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston ko'rib chiqilayotgan mamlakatlar orasida qishloq xo'jaligi yerlari bo'yicha to'rtinchi va haydaladigan yerlar bo'yicha ham to'rtinchi o'rinni egallaydi.

2-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlarida qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni⁴, ming ga

Mamlakatlar	Yillar						2020 yilla 2000 yilga nisb. % da
	2000	2010	2015	2017	2019	2020	
Ukraina	41385	41304	41267	41281	41558	41525	100,3
Belarus	9128	8949	8898	8875	8893	8817	96,6
RF	216861	215680	213780	215250	216250	216200	99,7
Arab sharqi mamlakatlari							
Iordania	1022	1013	1002	1003	1004	1006	98,4
Misr	3338	3523	3671	3665	3657	3642	109,1
Saudiya Arabistoni	173791	173717	173355	173355	173351	173352	99,7
Iroq	8490	9390	8210	8210	8212	8216	96,8
Suriya Arab respublikasi	13723	13828	13908	13864	13860	13859	101,0

Iordaniyaning butun yer fondi tarkibi quyidagicha: qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar taxminan 1300 ming gektarni tashkil etadi, shundan 270 ming gektari qaram bo'lgan yerlar, bundan tashqari har yili taxminan 100-200 ming gektar yer suv yetishmasligi sababli ishlov berilmaydi. Shunday qilib, ishlov beriladigan yer 1000-1100 ming gektardan oshmaydi. Ularning aksariyat qismi atigi 60-100 ming gektar yoki 7-10% yog'ingarchilik bilan sug'oriladi. Bu qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining sezilarli tebranishining asosiy sabablaridan biridir.

Sug'oriladigan dehqonchilik sabzavot (asosan pomidor, patlican va bodring) va mevalar (asosan sitrus mevalar va banan) ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. U Iordan daryosi irmoqlari bo'ylab va ushbu daryo vodiysida rivojlangan. Zamonaviy tomchilatib sug'orish va plyonkali issiqxonalarni joriy etish natijasida vodiya qishloq

⁴ Manba: https://www.theglobaleconomy.com/rankings/agricultural_land/ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish kuzatilgan yillarda sezilarli darajada oshdi, bu esa Iordaniyaga meva va sabzavotlarni eksport qilishni boshlashiga imkon berdi.

Shunday qilib, kelajakda ma‘lum bir ekinni yetishtirish maydonlarini kengaytirish yoki qisqartirishni asoslashda, shu qatorda tuproq unumdorligini saqlash va atrof - muhitning ekologik muvozanatini saqlash talablarini hisobga oladigan omillar majmuini hisobga olish kerak.

xo‘jaligiga yaroqli 36 mln. gektar yer mavjud bo‘lib, u mo‘l-ko‘l yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligining asosiy mahsulotlari: bug‘doy, arpa, qand lavlagi, kartoshka, shuningdek uzum, meva -

Germaniya hududining qariyb uchdan bir qismi (10,7 mln.ga) o‘rmon bilan 40 mln. kub metr yog‘och tayyorlanadi, bu hajm ichki ehtiyojning uchdan ikki qismini qoplaydi. Germaniya yog‘och eksport qiladigan eng yirik davlatlardan biridir. Shimoliy

Braziliya qishloq xo‘jaligi Braziliya iqtisodiyotining tarixiy asosi hisoblanadi. Dastlab Braziliya faqat shakarqamish ishlab chiqargan bo‘lsa, keyinchalik dunyoning

Braziliya yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligining ulushi 5,2 foizini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar bilan birgalikda 30 foizini tashkil qiladi. Sohada iqtisodiy faol aholining 15% band. Mamlakat asosan oziq-ovqatga b

o AQSH qishloq xo‘jaligi bo‘yicha eng yirik ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlari birinchilar qatorida agrobiznesga o‘tgan davlatlardan hisoblanadi. Agrosanoat sohasida mehnat unumdorligi sanoatga qaraganda tezroq o‘sib bormoqda. AQShda hosildorlikning oshishi qishloq xo‘jaligi ekinlari o‘sishining 81% ni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish darajasining ko‘rsatkichi 1 gektardan olingan mahsulot tannarxi 580\$ bo‘lishi mumkin. Bir qishloq xo‘jaligi ishchisi 80 kishini boqib, 50-60 gektarga ishlov berishi mumkin. AQSH qishloq xo‘jaligi faoliyatining samaradorligi asosan intensiv omillarga (yuqori mahsuldor hskunalar, malakali kadrlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdan foydalanish, davlat ko‘magi) asoslangan.

i Qo‘shma Shtatlarda 2,1 million fermer xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, ularda 3 millionga yaqin kishi ishlaydi. Ular qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatadigan, uning mahsulotlarini qayta ishlaydigan va sotadigan qariyb 2-10 millionlab odamlar bilan jo‘ldiriladi.

i
n <https://geographyofrussia.com/selskoe-xozyajstvo-brazilii/>.

Qo'shma Shtatlarda qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, asosiy tarmoqlari dehqonchilik va chorvachilikdir. Ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi nafaqat mamlakatning ichki ehtiyojlarini, balki eksport qilinadigan mahsulotlarning katta qismini ham ta'minlaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy omili — bu ishlab chiqarish barqarorligi va samaradorligini oshirish orqali ichki bozorni muvozanatda ushlab turishdir. Buning uchun mamlakatlar fermerlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini rivojlantirish va bozor infratuzilmasini mukammallashtirish kabi choralarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston uchun ham mazkur masala nihoyatda dolzarbdir. Mamlakatda qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining katta qismini bevosita oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi va yer sho'rlanish darajasining ortishi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mahsulot diversifikatsiyasi va qayta ishlash salohiyatini oshirish — milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridir.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solayotgan asosiy muammo bu ta'minot zanjirining uzilishi va oziq-ovqat narxlarining beqarorligidir. Bu esa, ayniqsa, importa bog'liq mamlakatlarda ichki bozordagi barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli O'zbekiston sharoitida mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini ishlab chiqarish bilan bog'lash, fermerlar uchun bozor axborot tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, suv tejovchi texnologiyalar, masalan, tomchilatib sug'orish va lentali sug'orish tizimlarini keng joriy etish, tuproq unumdorligini tiklashga qaratilgan fitomeliorativ usullardan foydalanish, innovatsion agrar biznes modellarni qo'llash iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ega vazifadir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, suv va yer resurslarini oqilona boshqarish hamda davlatning maqsadli qo'llab-quvvatlovi orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

O'zbekiston ham bu yo'nalishda to'g'ri strategiyani tanlab, milliy ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirsa, nafaqat ichki bozorni, balki tashqi bozorda ham raqobatbardosh pozitsiyani egallashi mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uza.uz/uz/posts/dunyo-aholisi-soni>

2. <https://data.worldbank.org/indicator/NV.AGR.TOTL.KD.ZG>
ma'lumotlari
3. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Uzstat, 2023 y.
4. https://www.theglobaleconomy.com/rankings/agricultural_land/
ma'lumotlari
5. Agriculture-Sector-Profile-24-4.pdf ma'lumotlari
6. <https://geographyofrussia.com/selskoe-xozyajstvo-brazili>
7. Shoxo'jayeva Z.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrar sohani rivojlantirish istiqbollari. T.: "VORIS-NASHIRIYOT", 2020y. Monografiya-117 b.
8. Shoxujayeva Z.S., Eshev A.S. Analysis of the dynamics of agricultural development and production in Kashkadarya region.// Canadian institute of technology. Multidisciplinary approaches to digitalization and economic growth. 3rd international conference. ICITBT 2023. June 15-16 .
9. Shoxo'jaeva Z.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti - O'quv qo'llanma/Qarshi. «Intellect» nashriyoti, 2022. –395 bet.
10. Shoxo'jaeva Z.S. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik/ Z.S.Shoxo'jaeva. «Intellect» nashriyoti, 2022. – 533 b.